

THE HISTORY OF THE STUDY OF STORIES IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Shakhnoza Ergashboevna KHUDAYBERDIEVA

Independent researcher

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
Tashkent, Uzbekistan

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI HIKOYATLARINING O'RGANILISH TARIXI

Shaxnoza Ergashboevna XUDAYBERDIYEVA

Mustaqil tadqiqotchi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ РАССКАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Шахноза Эргашбоевна ХУДАЙБЕРДИЕВА

Самостоятельный исследователь

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан xudayberdiyevashaxnoza5@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xudayberdiyeva Sh.E. Alisher Navoiy asarlaridagi hikoyatlarining o'rganilish tarixi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 1 (60). — B. 189-201.

<https://doi.org/10.36078/1742366606>

Received: January 20, 2025


Accepted: February 17, 2025

Published: February 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article analyzes the main research studies conducted on the stories by Alisher Navoi from 1960 to the present. The moral, socio-political, love and mystical themes of Navoi's stories, as well as thematic and ideological issues, artistic means and views on their literary value are examined. In this regard, N. Ganihojaeva's research dedicated to the 525th anniversary of Navoi's birth, especially her consideration of the stories in the context of the development of Uzbek Soviet literature in the 60s-70s, is especially studied. The views on the role of folklore and Persian-Tajik literature in the formation of Navoi's stories presented in this article are analyzed. It is noted that attention is paid to the diversity of topics such as labor, education, justice, patriotism and love. Special attention is paid to Navoi's artistic skills in creating images, using scenery, psychology, composition and subject matter. It is revealed that I. Sultan, Oybek, N. Mallayev, A. Abdugafurov, B. Murtazoyev and other scholars have studied the theme and composition of Navoi's works, demonstrating the poet's artistic skill and inspiration from his predecessors. These studies emphasize the importance of studying Navoi's stories from literary, religious and moral aspects, and they also reveal the poetic and individual approaches of the authors. Another series of works explores individual aspects: satire and humor (A. Abdugafurov), comparison with Khusrav Dehlavi's work "Hasht behisht" (B. Murtazoyev), symbolism in "Lison ut-tair" (Z. Mamadaliyeva), interpretation of the Quran and hadith, Sufi stories (O. Davlatov), poetics of "Khairat ul-abror" (N. Sharipova) and the genesis of "Saddi Iskandariy" (I. Ismailov). The influence of predecessors such as Attar, Rumi, Jami, and the importance of studying stories to understand the era are emphasized. Navoi's uniqueness in creating poetic stories with realistic elements is noted.

Keywords: Alisher Navoi; “Sab’al sayyor”; “Khayrat ul-abror”; short story; “Lison ut-tair”; epic poem.

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1960-yildan bugunga qadar Alisher Navoiy hikoyatlari yuzasidan olib borilgan asosiy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Navoiy hikoyatlarining axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, ishq-muhabbat va tasavvufiy mavzulari hamda tematik-g’oyaviy masalalari, badiiy vositalar va ularning adabiy qimmatiga oid qarashlar ko’zdan kechirildi. Bu borada N. G’anixo’jayevaning Navoiy tavalludining 525 yilligiga bag’ishlangan tadqiqoti, ayniqsa, hikoyatlarni 60–70-yillarda o’zbek sho’ro adabiyoti taraqqiyoti kontekstida ko’rib chiqqani alohida o’rganildi. Bu maqolada keltirilgan Navoiy hikoyatlarining shakllanishida folklor va forstojik adabiyotining o’rni haqidagi qarashlar tahlilga tortildi. Mehnat, ta’lim, adolat, vatanparvarlik va sevgi kabi mavzu xilma-xilligiga e’tibor qaratilgani qayd etildi. Navoiyning obraz yaratish, manzara, psixologiya, kompozitsiya va sujetdan foydalanishdagi badiiy mahoratiga alohida e’tibor qaratildi. I. Sulton, Oybek, N. Mallayev, A. Abdug’afurov, B. Murtazoyev va boshqa olimlar Navoiy asarlaridagi mavzu va kompozitsiyani tadqiq etib, shoirning badiiy mahorati va uning salaflaridan ilhomlanishini ko’rsatgani ochib berildi. Ushbu tadqiqotlarda Navoiy hikoyatlarini adabiy, diniy va axloqiy jihatlardan o’rganishning ahamiyati ta’kidlangani, shuningdek, mualliflarning poetik va individual yondashuvi ochib berildi. Boshqa bir turkum ishlarda esa individual jihatlar tadqiq etilgani: satira va yumor (A. Abdug’ofurov), Xusrav Dehlaviyning “Hasht behisht” asari bilan qiyosi (B. Murtazoyev), “Lison ut-tayr”dagi ramziylik (Z. Mamadaliyeva), Qur’on va hadis tafsiri, tasavvuf qissalari (O. Davlatov), “Xayrat ul-abror” poetikasi (N. Sharipova) va “Saddi Iskandariy” genezisi (I. Ismoilov). Attor, Rumi, Jomiy kabi salaflarning ta’siri, davrni tushunish uchun hikoyatlarni o’rganishning muhimligi ta’kidlanadi. Navoiyning realistik unsurlar bilan poetik hikoyalar yaratishdagi o’ziga xosligi qayd etiladi.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy; “Sab’al sayyor”; “Hayrat ul-abror”; hikoyat; “Lison ut-tayr”; doston.

Аннотация. В статье анализируются основные научные исследования, посвященные рассказам Алишера Навои с 1960 года по настоящее время. Рассматриваются моральные, социально-политические, любовные и суфийские темы, а также тематико-идейные вопросы, художественные средства и литературная ценность его произведений. Особое внимание уделяется исследованию Н. Ганиходжаевой, посвященному 525-летию со дня рождения Навои, в котором рассматриваются рассказы в контексте развития узбекской советской литературы 60–70-х годов. В статье анализируются взгляды на роль фольклора и персидско-таджикской литературы в формировании рассказов Навои. Отмечается разнообразие тем, таких как труд, образование, справедливость, патриотизм и любовь. Особое внимание уделяется художественному мастерству Навои в создании образов, пейзажей, психологии героев, композиции и сюжета. Исследования И. Султана, Ойбека, Н. Маллаева, А. Абдугафурова, Б. Муртазаева и других ученых, изучающих темы и композицию произведений Навои, показывают его художественное мастерство и влияние на предшественников. Подчеркивается важность изучения рассказов Навои с литературной, религиозной и моральной точек зрения, а также поэтический и индивидуальный подход авторов. В других работах исследуются индивидуальные

аспекты: сатира и юмор (А. Абдугафуров), сравнение с произведением Хусрава Дехлеви «Хашт бихишт» (Б. Муртазаев), символизм в «Лисон ут-тайр» (З. Мамадалиева), Корана и хадисов, суфийские рассказы (О. Давлатов), поэтика «Хайрат ул-аброр» (Н. Шарипова) и генезис «Садди Искандари» (И. Исмоилов). Подчеркивается влияние таких предшественников, как Аттар, Руми, Джами, а также важность изучения рассказов для понимания эпохи. Отмечается уникальность Навои в создании поэтических рассказов с реалистическими элементами.

Ключевые слова: Алишер Навои; «Сабъи сайёр»; «Хайрат ул-аброр»; рассказ; «Лисон ут-тайр»; поэма.

Kirish

Alisher Navoiy ijodini o'rganish shoir yashagan davrdan bugungi kunga qadar davom etmoqda, xususan, shoirning hikoyatlarini tadqiq etish hamisha navoiyshunos olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Bu boradagi ishlarni yondashuvlar nuqtayi nazaridan umumlashtirish mumkin bo'lsa-da, ularni xronologik prinsip asosida ko'rib chiqish ushbu turkumdagi ishlarga oid umumiy manzarani tasavvur qilishga imkon berishi bilan ahamiyatlidir.

Atoqli adabiyotshunos N. Mallayev "O'zbek adabiyoti tarixi" darslik kitobida Alisher Navoiy ijodiga batafsil to'xtalib, har bir asari haqida qimmatli fikr-mulohazalar bildirgan. Muallif "Sab'ayi sayyor" dostonidagi hikoyatlarning ba'zilarini tahlil qiladi, yetti hikoyat asarning g'oyaviy-badiiy to'qimasida katta o'rin tutadi deya e'tirof etadi va shunday yozadi: "Ularda real hayot lavhalaridan tortib fantastik manzaralarga qadar, oddiy turmush voqealaridan tortib kishini esankiratuvchi xayoliy sarguzashtlar ham bor" [Маллаев 1965, 484]. Shuningdek, olim "Lison ut-tayr" dostonidagi hikoyatlarining ayrimlari tarixiy va afsonaviy shaxslar bilan bog'liqligini aytadi va hikoyatlar nomlarini keltiradi. Ayrim hikoyatlarning qisqacha sharhini beradi. Ularning muayyan qismida Navoiy insonlardagi salbiy illatlarni qattiq tanqid qilib, satira va yumordan foydalanganligi ochib beriladi: "Navoiyning bu hikoyatlari uning kichik epik janrda ham mahorat egasi ekanini ko'rsatadi", — deb o'z fikrini xulosalaydi [Маллаев 1965, 513–514].

N. G'anixo'jayeva 1967-yili Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligiga bag'ishlab, akademik V. Zohidov rahbarligida "Alisher Navoiy — hikoyanavis" ("Xamsa" materiallari asosida) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Unda N. G'anixo'jayeva o'ziga qadar aynan Navoiy hikoyatlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlarga to'xtalib, quyidagi ma'lumotlarni keltirgan: "Navoiy ijodiy merosining juda katta qismini uning epik asarlari tashkil etadi, shuning uchun ham uning epik asarlari so'nggi davrda maxsus tekshirish obyekti sifatida chuqur o'rganila boshlandi. Navoiyning epik asarlarini o'rganish sohasidagi ishlar ikki yo'nalishda olib borildi. Birinchi yo'l tekstologik xarakterda bo'lib, Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish sohasida katta ishlar qilindi va qilinmoqda" [Фанихўжаева 1967, 3]. Shuningdek, Navoiy hikoyatlari ham shoirning liro-epik asarlari kabi katta ijtimoiy, tarbiyaviy,

estetik ahamiyatga egaligi, g'oyaviy yuksakligi, badiiy pishiqligi, tarbiyaviy ahamiyati bilan alohida o'rganilishi kerakligi aytiladi.

Asosiy qism

Olimaning tadqiqotida o'tgan asrning 60–70-yillari o'zbek adabiyotidagi hikoyachilikni rivojlantirishda Navoiy hikoyatlarining ahamiyati borligi va Navoiy hikoyatlari ushbu davr olimlari tomonidan o'rganila boshlangani haqida ma'lumotlar berilgan. Jumladan, akademik V. Zohidov Navoiyning “Lison ut-tayr” asari, “Sab'ayi sayyor”ning g'oyaviy motivlari” kabi ilmiy maqolalarida Navoiy hikoyatlari haqida mulohazalar bildirgani, G'. Karimov “Sab'ayi sayyor” maqolasida dostonning yaratilish tarixi, shoir dostonining shu mavzuda yozilgan boshqa dostonlardan farqi, aslligi haqida to'xtalib, undagi hikoyatlar ustida fikr yuritgani, Y. Bertels “Navoiy” monografiyasida, adabiyotshunos N. Mallayev “O'zbek adabiyoti tarixi” darsligida, O. Sharafiddinov “Alisher Navoiy” monografiyasida, S. G'aniyeva “Alisher Navoiy” asarida, Sh. Shukurov “Navoiyning mehnat va mehnat kishisiga bo'lgan munosabati masalasiga doir” maqolasida [Fанихўжаева 1967: 5–6] Navoiy hikoyatlari haqida to'xtalib, qimmatli fikrlar berilgani maxsus ko'rib chiqilgan.

Ushbu tadqiqot ikki bobdan iborat. Uning birinchi bobi “Navoiy hikoyatlarining tematik-g'oyaviy tahlili va obrazlari” deb nomlangan. Navoiy hikoyatlari va obrazlarini baholashda mavjud qarashlar izohlangan. Jumladan, Navoiygacha bo'lgan davrda o'zbek hikoyachiligi, shoirning hikoyatlar bitishda salaflari ijodidan ilhomlangani va yana bir qancha omillar keltirilib, uch asosiy manba: “Davri hayoti, xalq og'zaki ijodi, forsojlik adabiyoti Navoiy hikoyatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi” [Fанихўжаева 1967: 15], — degan fikr ilgari suriladi. Hikoyatlarning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy masalalarga bag'ishlanganligi, shoirning bu masalalar doirasida o'z fikr-qarashlarini ifodalagani ta'kidlangan. Shoir yashagan davr masalalari sifatida markazlashgan davlat uchun o'zaro ichki urushlar, tinchlik va adolat uchun kurashlar, vatanparvarlik, ilm-ma'rifatga chaqirish, sof sevgi-sadoqatni ulug'lash, xotin-qizlarning hurfiqirliligini va sevgida erkin bo'lishni himoya qilish kabi masalalar keltirilib, ular shartli ravishda besh guruhga ajratilgan va shular asosida tahliliy fikrlar bayon qilingan.

Dastlabki bobning ilk fasli Navoiy hikoyatlaridagi mehnat va ilm-ma'rifat masalalariga bag'ishlangan va unda Navoiyning mehnat haqidagi fikrlari misollar bilan keltirilib, mehnatsevarlik insondagi eng oliyanob fazilatlardan biri ekanligi, mehnat kishisi Navoiy asarlarida oliy maqomda tasvirlanishi, aksincha, jamiyatdagi tekintomoq amaldorlar, tanbal shahzodalar qattiq qoralanib, “Farhod va Shirin”da Farhodni mehnatkash shahzoda sifatida bejiz yaratmagani, o'z zamonasining dangasa, mehnat qilishdan orlanadigan, shahzodalarga o'rnak bo'lishi uchun yaratilgani aytiladi va shoirning mehnat va mehnat ahliga bo'lgan munosabati uning hikoyatlarida yaxshi yoritilganni ochib beriladi. “Sab'ayi sayyor” dostonidagi to'rtinchi musofir tilidan keltirilgan, saxiyligi bilan nom chiqargan, odil va insofli shoh haqidagi Juna hikoyatining mazmuni keltirilib, hikoyat so'ngida undagi barcha obrazlar, ularning sifatleri,

hikoyatdagi har bir voqea tahlilga tortilib, asarda bu hikoyatni keltirishdan shoirning maqsadi xususidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Muallif Navoiyning saxiylik haqidagi mulohazalariga e'tibor qaratadi va shoir saxiylikni, insondagi oliyjanob fazilatlardan biri sifatida ulug'lashini "Hotami Toyi" hikoyati misolida, jumladan, o'tinchi cholning mehnatkashligi, qanoati Hotami Toyining himmatidan ustun turishi batafsil tahlil qilinadi. Hotam nomi bilan bog'liq hikoyatlarning Sharq adabiyotida Navoiygacha ham mavjudligi, xususan, Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostonida keltirilgan "G'isht quyuvchi chol" hikoyati g'oyaviy jihatdan "Hotam toy" hikoyati g'oyasi bilan yaqinligi aytilib, ikkala hikoyatning o'xshash va farqli jihatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, Sa'diy Sheroziy "Guliston" idagi o'n to'rtinchi hikoyat ham Hotami Toyi haqida ekanligi eslatilib, uning mazmuni qisqacha bayoni qilingan. Bu kabi ma'lumotlarni keltirishdan muallifning maqsadi, Navoiy o'sha hikoyatlarni aynan keltirgan deyish emas, balki Navoiyning o'zigacha bo'lgan bu mavzudagi hikoyatlardan juda yaxshi xabardorligi va manbalardan foydalanish mahorati bilan bog'liq xulosalarni taqdim etishdir.

N. G'anixo'jayeva o'z tadqiqotida Navoiy ijodidagi ilm-marifat haqidagi hikoyatlarni tahlil etib, shunday yozadi: "... Navoiy ilm va ma'rifat haqidagi o'z orzu-intilishlarini ikki yo'l bilan amalga oshirmoqchi bo'ldi. Bir tomondan, u asarlarida olim va fozil kishilarni, ijobiy obrazlarini yaratib, ulardan o'rnak olishga undasa, ikkinchi tomondan, mavjud hayotdagi yaramas ahvolni haqqoniy tasvirlab, keskin fosh qilish orqali ularni tuzatishga intildi" [Ганихўжаева 1967: 51].

Bobning ikkinchi fasli "Navoiy hikoyatlarida adolat va vatanparvarlik masalalari" deb nomlanib, unda muallif shoirning mazkur mavzudagi hikoyatlariga to'xtab o'tgan. Saroy muhitidan xabardor bo'lgan Navoiy o'z asarlarida adolatli shohlar timsollarini yaratar, shu yo'l bilan o'z zamonasi hukmdorlariga nasihat qilishga intilardi, chunki Navoiy adolatli shoh adolatli jamiyat barpo eta oladi degan fikrda bo'lgan, shu sababdan ham adolat mavzusidagi asarlari, hikoyatlarining deyarli barchasi shohlar bilan bevosita bog'liq holda yaratilgan.

Muallif ham o'z ishida yuqoridagi kabi fikrlarni bildirib, Navoiyning adolat mavzusiga bag'ishlab yozgan asarlari va ularda keltirilgan hikoyatlarni tilga oladi. Jumladan, "Xamsa" dagi "Shoh G'oziy hikoyati..." ("Hayrat ul-abror" dostoning uchinchi maqolatiga ilova), "Iskandar hikoyasi..." ("Hayrat ul-abror" dostoning o'n to'rtinchi maqolatiga ilova), "Bahromgo'r hikoyati...", ("Hayrat ul-abror" dostoning o'n to'qqizinchi maqolatiga ilova), "To'rtinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir hikoyati" ("Sab'ayi sayyor" dostoni), "Iskandar bilan ul gadolig' ixtiyor etgan podsho hikoyati", "Mahmud hikoyati...", "Sulton Abusaid ko'ragoniy hikoyati", "Ardasher hikoyati...", "Bahromgo'r hikoyati...", "Gadoyi kamsarmoyayi balandpoya hikoyati..." ("Saddi Iskandariy" dostoni) kabi qator hikoyatlarning adolat masalasiga bag'ishlanganligi ta'kidlanib, "Shoh G'oziy hikoyati" haqidagi fikr mulohazalar keltirilgan.

Muallif adolat mavzusidagi hikoyatlardan vatanparvarlik mavzusidagi hikoyatlariga o'tar ekan, adolat mavzusidagi hikoyatlarda ham vatanparvarlik masalalari yoritilganligi, ammo shoirning "Ul kabutar" hikoyatida bu masala yanada ravshanroq yoritilganini aytadi. Hikoyat juda

qisqa, 14 baytdan iborat bo'lsa-da, o'sha davr manzarasi aniq tasvirlanganini quyidagicha izohlaydi: "Hikoyatda mavjud feodal jamiyatning eng xarakterli illati fosh qilinadi. Bir tomondan, shoh saroyining dabdabasi, ikkinchi tomondan, xarobaga aylangan mamlakat, bir tomondan boylik va oltin, ikkinchi tomondan, shu boylikni yaratuvchi xalqning nochor hayot kechirishi, bu ikki qutbni bir-birini tamoman istisno qilishi hikoyatdagi kabutar obrazi orqali yaxshi ochilgan" [Fanih'jaeva 1967, 84]. Ko'rinib turibdiki, muallif ko'proq ijtimoiy tahlilga e'tibor qaratadi. Xolbuki, mazkur hikoyat butunlay vatanparvarlik mavzusida bo'lib, uning sinfiy ziddiyatga hech qanday aloqasi yo'q.

Birinchi bobning uchinchi fasli Navoiy hikoyatlaridagi sevgi mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, bu qisimda hikoyatlarni tahlil qilishdan avval sevgi haqidagi shoirning qarashlari va baytlari keltirilib, ular haqida tegishli fikrlar aytilgan. Muallif Navoiy sevgini ham o'z navbatida uchga ajratishni qayd etadi: 1) avom sevgisi; 2) oshiq sevgisi; 3) Allohga bo'lgan sevgi. Navoiy bulardan ikkinchi tur sevgini tasvirlagani, sevgining bosh obyektini insondir deb, insonning insonga bo'lgan sevgisini ulug'lagani va "Sab'ayi sayyor" dostonidagi "Avvalgi iqlim yo'ldan keturg'on musofirning fasona demog'i" hikoyatida bu masala yaxshi ochilganligini aytadi. Shoirning halollik va poklikka asoslanmagan sevgini qoralashi ta'kidlanib, sevgi irq, din tanlamasligini "Lison ut-tayr" dostonidagi "Shayx Sano" qissasi tahlili bilan asoslashga harakat qiladi.

Alisher Navoiy bir qancha asarlarida sevgi mavzusiga to'xtalgan, ularda bir qancha insoniy fazilatlar kuylangani barchamizga yaxshi ma'lum. N.G'anixo'jayeva ham o'z ishida shu kabi fikrlarni bir qancha hikoyatlar tahlili bilan mustahkamlab, "Hayrat ul-abror"ning sakkizinchi maqolatidagi hikoyat, "Saddi Iskandariy"dagi "Ikki yor..." hikoyatlari vafodorlik haqida ekanligini asoslaydi. Xullas, muallif ishning birinchi bobi yuzasidan quyidagicha xulosaga keladi: "Ulug' mutafakkir shoir, yuqorida zikr qilingan mehnat, ilm-ma'rifat, adolat, vatanparvarlik, sof sevgi kabi masalalarni chuqur gumanistik pozitsiyada turib yoritib berdi. Xalqparvarlik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surib, ajoyib ijobiy obrazlar yaratdi" [Fanih'jaeva 1967: 107].

Ishning ikkinchi bobi "Navoiy hikoyatlarida badiiy mahorat masalalari" deb nomlangan va unda hikoya janriga xos muhim xususiyatlar korsatilgan, bu borada Navoiy hikoyatlariga murojaat qilingan. Ijodkor yaratayotgan asaridagi voqealar jonli, obrazlar tabiiy chiqishi uchun tasvirlanayotgan makon va zamon birligini yaxshi bilmog'i lozimligi ta'kidlangan.

Har bir asarning chuqur g'oyaviy-badiiy go'zalligi, asardagi inson obrazining tasviriga bog'liq. Ijodkor o'z asari qahramonlarining hayotini, ularning orzu-istaklarini yaxshi bilmog'i lozim. Navoiy hikoyatlarida o'sha davr hayotida ezilgan mehnatkash xalq vakillarining, shoh va shahzodalar obrazlarining mahorat bilan tasvirlangani, hikoyatlardagi ijobiy qahramonlar xalq vakillari ekanligi misollar bilan yoritilgan. Hikoyatlardagi ijobiy va salbiy obrazlarga alohida to'xtab, ularni noma-nom sanab, bu obrazlarni yaratishda shoir xilma-xil manbalarga, xalq og'zaki ijodi namunalariга murojaat qilgani aytiladi. Hikoyalarda kam sonli obraz orqali barcha lavhalar va maqsadlar ifodalanishi kerakligi, Navoiy hikoyatlarining barchasi bu qoidaga muvofiq kelishi, shuningdek,

obrazning fe'l-atvorini ochib beruvchi vositalardan biri, bu — portret ekanligi, shoir hikoyatlarida biror qahramonining portretini chizmagani, balki ularga xos bo'lgan ba'zi belgilar bilan obrazni o'quvchi ko'z o'ngida jonlantirgani, bu ham o'z navbatida shoirning mahoratiga bog'liq ekanligini ko'plab misollar bilan asoslagan.

Tadqiqotchi Navoiyning hikoyatlar yaratishdagi badiiy mahoratini korsatishda, nafaqat yuqoridagi masalalarga to'xtalgan, balki hikoyatlardagi peyzaj, psixologizm, kompozitsiya, sujet, portret yaratish kabi jihatlari haqida ham fikrlarini bildirgan.

Masnaviy yo'lida bitilgan hikoyatlarda bir qancha badiiy san'atlar: tarse, tardi aks, tashbih, ishtiyoq, takrir, tazmin va boshqalardan mahorat bilan foydalangani misollar yordamida tahlil qilingan.

Muallif ish yakunida o'z xulosalarini quyidagicha beradi: "Navoiy lirikasini, dostonlarini o'rganish qanday ahamiyatga ega bo'lsa, hikoyatlarini o'rganish ham shunday muhim ahamiyatga egadir. Navoiy hikoyatlarini o'rganish o'sha davrdagi hikoyalarni o'rganish demakdir... Navoiy o'zigacha bo'lgan hikoyachilikning eng yaxshi tomonlarini rivojlantirdi, realistik elementlarga boy bo'lgan she'riy hikoya janrini (to'la ma'noda) boshlab berdi" [Fanih'jaeva 1967: 157; Fanieva 1968: 222–237].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tadqiqotchi hikoyatlarni tahlil qilishda mavzular kesimida yondashib, "Xamsa"ga kiruvchi beshta doston tarkibidagi bir mavzuga oid hikoyatlarni olib, atroflicha o'rgangan. Bu tahliliy yondashuvga xos to'g'ri yo'ldir.

Alisher Navoiy ijodini o'rgangan tadqiqotchilaridan biri — Oybek o'zining "Navoiy gulshani" maqolalar to'plamida hikoyatlarga ham to'xtalib, "Sab'ayi sayyor" dostoni tahlilida hikoyatlar haqida, jumladan, shunday deydi: "Hikoyalar jonli, boy fantaziyaning rang-barang jilvalari, poeziyaning toza chamanzorlari bilan tovlanadi. Ayrim hikoyalar favqulodda mukammal ishlangan kichik poemalardir" [Oybek 1967: 113]. Ushbu fikrdan so'ng dostonidagi beshinchi hikoyatning tahlili berilgan.

Izzat Sulton 1969-yili yozilgan "Navoiyning qalb daftari" kitobida Navoiyning hayot yo'lini chizishga va bu boradagi fikrlarini shoirning o'z ijodidan olingan misollar bilan tushuntirishga urinib, "Lison ut-tayr" dostonidagi Qaqnus hikoyati asosida quyidagilarni yozadi: "Navoiy Shayx Attorni avvaliga ota — Qaqnusga, o'zini uning kulidan chiqqan jo'ja — Qaqnusbachchaga o'xshatadi va hamon bu fikrni qat'iy tasdiq etishga jur'at etmay, to'g'rirog'i — kamtarlik ko'rsatib, Attorni shohga o'zini uning bandasi — quliga o'xshatadi" [Sulton 1969: 67].

Navoiy hikoyatlari haqida A. Abdug'afurov "Alisher Navoiy ijodida satira" (1972-yil) deb nomlangan monografiyasida shoir ijodining yumorga boy ekanligi, buni o'z davrida shoirning zamondoshlari — G'iyosiddin Xondamir va Zayniddin Vosifiy ham alohida e'tirof etganliklarini aytadi. Olim Navoiyning boshqa janrlardagi she'rlariga murojaat qilib, uning yumoristik mahoratini baholaydi. Jumladan, "Lison ut-tayr" dostonida kelgan hikoyatlarni bu masalaga bog'lab tahlil qiladi, ulardagi satirik va yumoristik ruhga e'tiborni qaratadi. Doston hikoyatlari mazmunidagi ochko'z, dangasa, tanbal kimsalarning salbiy qusurlari va ular fojiaiy qiyofasi tasvirlarining kulgiga bog'lab berilishi va bunda shoirning folklordan ustalik bilan foydalanishi xususida fikr yuritadi.

“Lison ut-tayr” hikoyatlari haqida Sh. Sharipovning fikr-mulohazalari ham e’tiborga molik. Unga ko‘ra, muallif “Lison ut-tayr” hikoyatlarini mavzusiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratadi:

1. Ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mavzudagi hikoyatlar.
2. Din va tasavvuf vakillari, ularning ba’zi muhim qarashlariga oid hikoyatlar.
3. Axloqiy-ta’limiy hikoyatlar.
4. Ishq-muhabbat mavzusidagi hikoyatlar [Шарипов 2022: 307].

Olim har bir guruhga bir qancha hikoyatlarni kiritib, u hikoyatlarning asarda kelish o‘rni, shoirning orginal hikoya yaratish, qahramonning ruhiy kechinmasi, psixologik xarakterini ochib berish mahoratiga alohida to‘xtalib o‘tgan. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mavzudagi hikoyatlariga “Shoh va ikki darvesh”, “G‘avvoslar”, “Shatranji kabir”, “Shoh va uning ko‘zgusi”, “Sham va parvona” kabi hikoyatlarni kiritib, bu hikoyatlarning barchasini qisqacha sharhlab, ular haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi. Xususan, “Sham va parvona” hikoyati to‘g‘risida quyidagicha xulosaga keladi: “Ushbu asardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, shamning nimaligini bilmoqchi bo‘lgan parvonalar u bilan qo‘shilib yonib, o‘z muddaosiga erishgani kabi inson ham fano o‘tida kuymasdan turib, haqiqatning asl mohiyatiga erisha olmaydi” [Шарипов 2022: 309].

Muallif asardagi “Shayx San’on” hikoyatiga ikki o‘rinda to‘xtalib, din va ishq haqidagi eng yaxshi hikoyat ekanligini aytgan va ushbu hikoyatni boshqa hikoyatlardan bir qancha farqlari haqida fikr bildirgan. Jumladan, Shayx San’on obrazi boshqa ijodkorlar tomonidan yaratilgan Shayx San’on obraziga nisbatan barkamolligi va hajmi, qurilishi jihatidan qissa deyish mumkinligi haqida to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, muhabbat shoir asarlarining asosiy mavzularidan biri ekanligi va Navoiy ushbu mavzuda o‘z qalbidagi eng nozik hislarini, shaxsiy muhabbatini, hijron va ayriliq alamlari kabi kechinmalarini ko‘chirgani, shubhasiz, degan fikrni bildiradi.

Hikoyatlarda xalq og‘zaki ijodi, Attor, Rumi va Jomiy kabi ijodkorlarning ta’siri sezilishi, shuningdek, “Lison ut-tayr” tarkibidagi bir qator hikoyatlarda asr feodal sharoitdagi axloqiy — ma’naviy buzilishning ayanchli oqibatlari tasvirlangani ta’kidlanadi.

Ta’kidlash kerakki, Navoiy hikoyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganishga doir ishlar ham mavjud. Bobonazar Murtazoyev tomonidan yozilgan “Alisher Navoiy “Sab’ayi sayyor” va Xisrav Dehlaviy “Hasht Behisht” dostonlarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi dissertatsiyaning uchinchi bobi yuqoridagi dostonlar hikoyatlari qiyosiga bag‘ishlangan. Muallif hikoyatlar o‘rtasidagi mavzu va g‘oyaning mushtarakligi, genezisi kabi masalalarga to‘xtalib, ular haqida qiziqarli va qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Muallif ular o‘rtasidagi bog‘liqlik, shoirning shoirga ta’siri, bir ijodkorning asari ikkinchi ijodkorga ilhombaxsh manba bo‘lganligini e’tirof etadi. Shuningdek, ikkala asardagi hikoyatlar ham rang-barangligi, bu borada ijodkorlarning har ikkisini ham xalq og‘zaki ijodiga cheksiz hurmat bilan munosabatda bo‘lgani va samimiyatining namoyishi deya izohlaydi. B. Murtazoyev har ikki asarning yetti hikoyatini qiyoslab quyidagi xulosani beradi: “Hashti behisht” va “Sab’ayi sayyor”

hikoyatlarining qiyosi shuni tasdiqlaydiki, hikoyatlarda goho uchrovchi tematik va g'oyaviy yaqinliklarni hisoblamaganda, ular asosan bir-biridan har jihatdan uzoq mustaqil hikoyatlardir. Mavjud jami o'n to'rtta hikoyatdan atigi ikkitasi o'xshash, qolgani tamoman boshqa-boshqa hikoyatlardir" [Myprazoev 1991: 124]. Muallif ushbu xulosadan keyin hikoyatlar manbalari to'g'risida to'xtalib, ularning folklor va kitobiy manbalar asosida shakllanganligini asoslashga harakat qiladi.

Z. Mamadaliyevaning "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizmi" mavzusidagi tadqiqot ishining bir qismi ham hikoyatlardagi ramziy timsollar talqiniga bag'ishlangan. Unda "Lison ut-tayr" dostonidagi hikoyatlarni Sh. Sharipov mavzu jihatidan to'rt guruhga ajratgani e'tirof etiladi. Navoiyning oshiq va ma'shuq, yaratgan va yaratilmish, fano va baqo, kamolot va zalolat haqidagi falsafiy mushohadalari Z. Mamadaliyevaning hikoyatlarni tahlil qilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Z. Mamadaliyeva hikoyatlarini quyidagicha tasniflaydi:

Birinchi guruh hikoyatlari — Hudhudning boshqa qushlarni Simurg' yo'liga targ'ib qilib aytgan hikoyatlari, ular 11 ta hikoyati tashkil etadi.

Ikkinchi guruh hikoyatlar — tarixiy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan hikoyatlar bo'lib, bunda 19ta hikoyat berilgan.

Uchinchi guruhda 22ta hikoyat nomi berilgan [Мамадалиева 2012: 131].

Ko'rinadiki, asarda jami 65ta hikoyat berilgan. Bu Z. Mamadaliyeva tomonidan ham e'tirof etilgan bo'lsa-da, muallif o'z tasnifi doirasida jami 52 ta hikoyatni o'rganish obyekti qilib ajratgan. Ushbu ajratilgan hikoyatlarda ko'p uchraydigan obrazlar haqida, jumladan, darvesh, oshiq-ma'shuq obrazlariga batafsil to'xtalib, har taraflama tahlilga tortgan.

"Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini" mavzusidagi 2017-yil Olim Davlatov tomonidan tayyorlangan dissertatsiyaning bir fasli "So'fiyona hikoyatlarda oyat va hadislar" deb nomlangan. O. Davlatov o'z ishida Navoiy hikoyatlarini, asosan, tasavvuf bilan bog'lab tahlil qiladi va quyidagi mulohazalarni bildiradi: "Tasavvufiy hikoyatlarda ayrim tarixiy shaxslar ham haqiqiy qiyofasini yo'qotib, shoirlar taxayyuli yordamida so'fiyona xislatlar kasb etadi. Tasavvuf adabiyotining ana shunday tarixiy-afsonaviy obrazlaridan biri — Sulton Mahmud G'aznaviydir" [Давлатов 2017: 93]. Shuningdek, Mahmud G'aznaviy ibn Sabuktegin hayoti, faoliyati haqida turli ma'lumotlar keltirib, ushbu shaxs haqidagi hikoyatlar ko'pgina ijodkorlar asarlarida uchrashi aytiladi. Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida kelgan Mahmud va Mas'ud hikoyatini, Attorning "Sulton Mahmudning u dunyodagi ahvoli" hikoyasi bilan qiyoslaydi. Ye. Bertelsning ushbu hikoyat Nizomiyning "Maxzan-ul-asror"idagi Sulton Sanjar va kampir hikoyati ta'sirida yaratilgan degan fikrlarini keltirib, Navoiy o'z hikoyatlarini yaratishda salaflari ijodidan ta'sirlangani, ustozlari Navoiy uchun ilhom manbayi bo'lgani ta'kidlanadi. Mazkur ishda Qur'onning ayrim oyatlari bu hikoyat uchun asosiy g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilganini ta'kidlagan tadqiqotchi o'z fikrini misollar bilan izohlab, quyidagi ma'lumotlatni beradi: "Hikoyatning ikkinchi baytida Qur'on oyatlarining iqtibosini uchratishimiz mumkin.

Eshitdimki, Mahmudi g'oziyg'a dahr

*Chu jomi hayot ichra hal qildi zahr.
Qilib “irji’i” nag‘masin istimo‘,
Ruju etti olamga aylab vido‘.*

“Irji’i” so‘zi “Fajr” surasining 28-oyatidan iqtibos qilingan. 27–30-oyatlar yaxlit, yagona ma‘noni ifodalaydi va A. Mansur bu oyatlarni shunday tarjima qilgan:

27. “Ey xotirjam-sokin jon!

28. (Ato etilgan ne‘matlardan) rozi bo‘lgan (va Alloh taolo tomonidan ham) rozi bo‘lingan holingda Rabbing (huzuri)ga qaytgin!

29. Bas, (solih) bandalarim (safi)ga qo‘shilgin.

30. va jannatimga kirgin” [Давлатов 2017: 94]. Oyatlarning mazmuni Mahmud hikoyatiga to‘la mos kelishi aytilgan.

Keyingi tadqiqotlarda Navoiy hikoyatlarini muayyan asar tadqiqi asnosida o‘rganishga ko‘p e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, N. Sharipovanning “Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni poetikasi” mavzusidagi dissertatsiyasining bir fasli “Doston tarkibida hikoyatlarning o‘rni va ularning kompozitsion jihatlari” deb nomlangan. Muallif eng avval “Hayrat ul-abror”ni undan keyingi to‘rt dostonidan farqlab, “Xamsa”ning yagona epik sujetga ega dostoni ekanini, shuningdek, qurilish jihatidan asarni uch kompozitsion zanjirga, birinchisi: dostonning umumiy, yaxlit kompozitsiyasi, ikkinchisi: maqolatlar kompozitsiyasi, uchinchisi: hikoyatlar kompozitsiyasiga ajratadi. Bu haqda dastlab N. Mallayev fikr bildirgan edi.

N. Sharipova “Hayrat ul-abror” dostonidagi barcha maqolat va hikoyatlarning keyingi dostonlar uchun muqaddima deyish to‘g‘ri emas, faqatgina to‘rt maqolat va to‘rt hikoyat keyingi dostonlarga mavzu va qahramonlarning fe‘l-atvori jihatidagina yaqin deb hisoblaydi.

1. Ishq o‘ti haqidagi maqolat va Faxriddin Iroqiy oshiqligi haqidagi hikoyat “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” mavzulariga yaqin.

2. Sultonlar tanqidi maqolati va Shoh Bahrom haqidagi hikoyatning “Sab‘ayi sayyor” dostoni mavzusiga yaqin.

3. Naf‘rasonlar — xalqqa foyda yetkazuvchilar haqidagi maqolatning “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning tog‘ qazib, suv keltirish g‘oyalariga yaqinligi.

4. Iskandar vasiyati haqidagi hikoyat “Saddi Iskandariy”da rivojlantirilishi.

Muallif Navoiyni mohir hikoyachi deb atab “Hayrat ul-abror” hikoyatlarini mavzu va mazmun jihatidan quyidagicha guruhlash mumkinligini ko‘rsatadi:

- tasavvufiy-falsafiy ruhdagi hikoyatlar;
- adolat, mardlik va jasorat madhiga bag‘ishlangan hikoyatlar;
- insoniy fazilatlar va illatlar talqin etilgan hikoyatlar;
- ilm va ilmparvarlik ulug‘langan hikoyatlar [Sharipova 2021: 105].

Tadqiqotchi: “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyat va obrazlarni “Maxzan ul-asror”, “Matla’ ul-anvor”, “Tuhfat ul-ahror” asarlaridagi hikoyat va obrazlar tizimi bilan solishtirilsa, Navoiy ilk dostonida ustozlari asarlarida uchramaydigan qator hikoyat va obrazlarning xamsachilik

an'anasiga yangilik sifatida kiritilganiga guvoh bo'lamiz" [Sharipova 2021: 131], — deb shoir ijodini yuqori baholaydi.

Sh.Sirojiddinov va G.Ashurovalar tomonidan tayyorlangan "Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodida turkona tafakkur va g'oyaviy-badiiy asos" (2021) nomli monografiyada ham "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror" hikoyatlariga alohida to'xtalib, hikoyatlarning dostonidagi soni, hajmi haqida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Ular mavzu jihatidan sakkiz guruhga ajratilgan. Ushbu mavzular ketma-ketligida hikoyatlar tahlil qilingan.

Keyingi yillari Navoiy hikoyatlarini genetik va poetik yondashuvlar uyg'unligida tadqiq etishga e'tibor ham kuchaydi. Ilyos Ismoilov "Alisher Navoiyning Saddi Iskandariy dostoni genezisi va poetikasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining (2022) "Navoiy ijodiy individualligining hikoyatlarda aks etishi" deb nomlangan qismida muhim fikrlarni bildiradi. Muallif "Saddi Iskandariy" dostonidagi birinchi hikoyat "Iskandar va gado" hikoyati misolida jiddiy izlanishlar olib borib, jumladan shunday deydi: "Iskandar va gado" hikoyati dostonni tushunishda shu qadar muhim ahamiyat kasb etadiki, u orqali Navoiyning o'z oldiga qo'ygan adabiy maqsadi, ideallari va bosh qahramonning ma'naviy qiyofasini aniq ilg'ash mumkin. Bu hikoyat "Saddi Iskandariy" dostonining ramziy kalitidir" [Исмаилов 2022: 217–218]. Olim hikoyatni ikki qismga ajratib, har ikki qism voqealari va detallarining genezisiga e'tibor qaratgan. Navoiyga qadar ushbu hikoyatning negizi kimlarning ijodida qay tarzda uchrashi, Navoiy o'z ijodida bu manbalarga qanday yondashgani va o'zidan nimalar qo'shgani misollar bilan ochib berilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiy hikoyatlarini o'rgangan mutaxassislarning umumiy va xususiy tomonlari mavjud. Umumiy tomonlari sifatida Navoiy haqidagi, uning mahorati borasidagi fikrlarning o'xshashligi, shoirning hikoyat yaratishda salaflari asarlaridan ilhomlangani, hikoyatlariga xalq ijodining ta'siri, berilgan tasvirlarda adib yashagan davr hayotning aks etishi kabilarni kiritish mumkin. Xususiy jihatlar sifatida hikoyatlar tahliliga yondashuv usulining har xilligini, har bir tadqiqotchi tegishli ilmiy muammo doirasida hikoyatlarga murojaat qilganligini aytish mumkin. N. G'anixo'jayeva umumiy mavzular asosida "Xamsa"dagi barcha hikoyatlarga murojaat qilgan bo'lsa, B. Murtazayev o'z e'tiborini "Sab'ayi sayyor" va "Hashti behisht" hikoyatlarini qiyoslashga, o'xshash va farqli jihatlarni yoritishga qaratgan. Boshqa ijodkorlar faqatgina muayyan dostonidagi bir, ba'zilar barcha hikoyatlarga murojaat qilib, ularni o'z ishlarida atroflicha yoritganlar. O'rganish natijasida shunga guvoh bo'ldikki, tadqiqot ishlari shoirning, asosan, "Lison ut-tayr", "Sab'ayi sayyor" va "Hayrat ul-abror" dostonlaridagi hikoyatlari ustida olib borilgan.

Alisher Navoiy hikoyatlarini keng ko'lamda va maxsus o'rganish, poetika masalalarini tadqiq etish shoirning nafaqat hikoyanavislik mahoratini, balki uning o'zgacha uslub va yondashuviga xos yangi qirralarni namoyon etishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Sharipova N. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni poetikasi. Filol. fan. bo'yicha fal. dok. ...diss. — Samarqand, 2021. — 131 б.
- Ганиева С, Абдуғафуров А. Навоий ва адабий таъсир масалалари. — Тошкент: Фан, 1968. — 237 б.
- Ганихўжаева Н. Алишер Навоий — ҳикоятнавис («Хамса» асари мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс. — Тошкент, 1967. — 157 б.
- Давлатов О. Алишер Навоий шеърятда Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадий талқини. Филол. фан. бўй. фалс. док. ...дисс. — Самарқанд, 2017. — 94 б.
- Исмоилов И. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони генезиси ва поэтикаси. Филол. фанлари д-ри. ...дисс. — Тошкент, 2022. — 218 б.
- Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. — Тошкент: Ўқитувчи, 1965. — 514 б.
- Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-таир” достонидаги рамзий образлар тизми. Филол. фан. номз. ...дисс. — Тошкент, 2012. — 131 б.
- Муртазоев Б. Алишер Навоий “Сабъаи сайёр” ва Хисрав Деҳлавий “Ҳашт Беҳишт” дostonларининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. номз. ...дисс. — Термиз, 1991. — 124 б.
- Ойбек. Навоий гулшани. Мақолалар тўплами. — Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1967. — 113 б.
- Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. — Тошкент: Гафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъати нашриёти, 1969. — 67 б.
- Шарипов Ш. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги тўплам. 3-жилди. — Тошкент: Тамаддун, 2022. — 309 б.

References

- Mallaeв, N. (1965). *Uzbek adabiet tarikh* (History of Uzbek literature). Tashkent: Ukituvchi.
- Ganikhuzhaeva, N. (1967). *Alisher Navoi – hikoyatnavis* (Alisher Navoi – a short story writer), candidate's thesis. Tashkent.
- Ganieva, S., Abdugafurov, A., (1968). *Navoi va adabii ta'sir masalalari* (Navoi and issues of literary influence). Tashkent: Fan.
- Oibek. (1967). *Navoi gulshani. Makolalar tuplami* (Navoi's gulshan. Collection of articles), Tashkent: Badii adabiet nashrieti.
- Sulton, I. (1969). *Navoiining qalb daftari* (Navoi's heart notebook), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi adabiet va san'ati nashreti.
- Murtazoev, B. (1991). *Alisher Navoi “Sab' ai saier” va Khisrav Dehlavii “Hasht Behisht” dostonlarining kiesii tahlili* (Comparative analysis of the epics of Alisher Navoi “Saba'i sayyor” and Khisrav Dehlavi “Hasht Behisht”), candidate's thesis. Termiz.
- Mamadaliyeva, Z. (2012). *Alisher Navoiining “Lison ut-tair” dostonidagi ramzii obrazlar tizmi* (List of symbolic images in Alisher Navoi's epic “Lison ut-tair”), candidate's thesis. Tashkent.

- Davlatov, O. (2017). *Alisher Navoi she"riyatida Kur"on oyatlari va hadislarning badiii talkini* (Artistic interpretation of verses of the Quran and hadiths in Alisher Navoi's poetry), doctor's thesis. Samarkand.
- Sharipova, N. (2021). *Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni poetikasi* (Poetics of Alisher Navoi's epic "Hayrat ul-abror"), doctor's thesis. Samarqand.
- Ismoilov, I. (2022). *Alisher Navoiining "Saddi Iskandarii" dostoni genezisi va poetikasi* (The genesis and poetics of Alisher Navoi's epic poem "Saddy Iskandariy".), doctor's thesis. Tashkent,
- Sharipov, Sh. (2022). *Istiklol davri uzbek navoiishunosligi tuplam. 3-zhildi* (Collection of Uzbek Navoi studies of the Independence period. Volume 3). Tashkent: Tamaddun.